

QASHQADARYO VILOYATIDAGI KEMIRUVCHILAR -*RODENTIA* TURKUMINING AYRIM TURLARINI BIOTOPLARDAGI SONI VA UNING EKOLOGIK OMILLAR BILAN BOG‘LIQLIGI

Olim Toshtemir o‘g‘li Tursunov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchi

tursunovolim04@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Qashqadaryo viloyatidagi *Rodentia* turkumi vakillarining tabiiy sharoitlarda tarqalishi, xilma-xilligi va soni to‘g‘risidagi materiallar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kemiruvchilar, tur, turkum, kalamush, sichqon, yumronqoziq, parazit, fauna.

ABSTRACT

The article highlights the distribution, diversity and abundance of representatives of the Rodentia family in the Kashkadarya region in natural conditions

Keywords : Rodents, view, genus, rat, mouse, gopher, parasite, fauna.

KIRISH

Global ekologik muammolar bilan bog‘liq holda tabiiy komplekslar tarkibida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar turlarning tarqalishi, bioekologik xususiyatlariga ta’sir qilishi bilan bir qatorda, ularning tabiatda va xalq xo‘jaligidagi ahamiyatini ham turlicha xususiyat kasb etishiga olib kelmoqda. Bunday vaziyat ayrim turlarning tarqalish areallarini o‘zgartirish orqali yangi yashash muhitlarini egallashlarida, ayrim lokal hududlarda ular sonining haddan ziyod ko‘payib ketishida ham namoyon bo‘lmoqda. Kemiruvchilar (*Rodentia*) turkumi turlari O‘zbekistonda keng tarqalgan bo‘lib, ular nafaqat tabiiy balki madaniy zonalarda ham o‘zining son ko‘rsatkichlari va ahamiyati bilan ajralib turadi. Ushbu turkumga bag‘ishlangan va ancha oldin amalga oshirilgan tadqiqotlarning natijalari bugungi kunda foydalanish uchun yetarli emas. Ayniqsa kemiruvchilar (*Rodentia*) turkumining tabiiy yashash joylarining o‘zlashtirilishi, irrigatsiya tizimi va boshqa bunyodkorlik faoliyatlarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar mazkur turkumni kompleks ravishda qayta o‘rganishni, uning ahamiyatini qayta baholashni taqazo etadi. Qashqadaryo viloyati hududining asosiy qismi cho‘l zonasida joylashgan bo‘lib, bu yerda kemiruvchilarning yashashi uchun shart-sharoitlar

respublikamizning boshqa hududlariga qaraganda bir qadar qulay. Keyingi yillardagi kuzatuvlarga qaraganda, kemiruvchilarning ayrim turlarini sonini oshganligi, ularning aholi yashash joylarida tarqalish areallarini kengayib borayotganligi va kemiruvchilar bilan bog‘liq ayrim biozararlanishlar miqdorining oshib borishi kuzatilmoqda. Bunday vaziyat ularning tarqalish areallarida olib borilayotgan profilaktik tadbirlar avvalgi yillarga nisbatan susayganligi yoki samaradorligining pasayganligi bilan ham tushuntirilishi mumkin. Shu asosda ayniqsa keng tarqalgan va muhim ahamiyatga ega bo‘lgan turlarning ekologik xususiyatlarini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Yerda yashovchilar sutemizuvchilarning eng katta guruhi bo‘lib, yer sharining barcha quruqliklarini egallan. Bular, asosan barcha o‘rmon va butazorlarda hamda ochiq yerlarda yashashga moslashgan. Masalan, kemiruvchilardan olmaxonlar daraxtda yashaydi, ochiq joyda yashovchilar xilma -xildir [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Qashqadaryo viloyatidagi tabiiy sharoitlarning ham xilma-xilligiga muvofiq kemiruvchilar turkumi vakillarining tarqalishi va soni turli landshaftlarda turlicha ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘ladi. Tekshirishlarimiz natijasida viloyatda uchrovchi kemiruvchilar turli xilda tarqalgan. Quyidagi jadvalda turlarning soniga tegishli materiallar ular keng tarqalgan hududlarda 1km.kv dagi sonini hisobga olish asosida keltirilgan. Jumladan, 1km kvda o‘rtacha soni 1-10 tagacha bo‘lganda kam sonli turlar, 10-100 o‘rtacha, 100 dan ko‘p bo‘lganda ko‘p sonli turlar sifatida qabul qilindi.

Kemiruvchilar Rodentia turkumi ayrim turlarining tarqalish biotoplari va soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar

t/r	Turlar	Tarqalgan xududi	Soni*
1.	Sariq yumronqoziq- <i>Spermophilus fulvus</i> . Lich, 1823	Tabiiy va madaniy landshaftlarning barcha turlarida keng tarqalgan	++
2.	Kichik yumronqoziq- <i>Spermophilus pygmaeus</i> . Pall, 1778	Tabiiy landshaftlarda sporodik tarqalishga ega	+
3.	Katta yumronqoziq- <i>Allactaga major</i> . Kerr, 1792	Tabiiy landshaftlarda va agrotsenozlarning chegara zonasida sporodik tarqalishga ega	+
4.	Kichik qo‘shoyoq- <i>Allactaga elater</i> . Lich, 1825	Табиий ландшафтларда ва агроценозларнинг chegara zonasida tarqalgan	++

5.	Oddiy yumronqoziq- <i>Ellobius tancrei</i> .Blas.1884	Tabiiy va madaniy landshaftlarning barcha turlarida keng tarqalgan	++
6.	Ondatra -Ondatra zibethicus. Linn,1766	Viloyatning tabiiy va madaniy landshaftlari orqali o'rgan barcha suv havzalarida keng tarqalgan	+++
7.	Jamoatchi dala sichqon - <i>Microtus socialis</i> , Pall, 1773	Viloyatning tabiiy va madaniy landshaftlarida tarqalgan	+
8.	Tushki qumsichqon - <i>Meridianus meridianus</i> , Pall, 1773	Viloyatning tabiiy va madaniy landshaftlarida tarqalgan	++
9.	Katta qumsichqon - <i>Rhombomys opimus</i> , Lich,1823	Viloyatning tabiiy va madaniy landshaftlarida tarqalgan	+++
10.	Uy sichqoni - <i>Mus musculus</i> , Linn,1758	Madaniy landshaftlardagi barcha biotoplarda keng tarqalgan, sinantrop tur	+++
11.	Kulrang kalamush - <i>Rattus norvegicus</i> . Berken,1769	Madaniy landshaftlardagi barcha biotoplarda keng tarqalgan, sinantrop tur	+++
12.	Turkiston kalamushi - <i>Rattus turkestanicus</i> .Satun,1903	Madaniy landshaftlardagi barcha biotoplarda keng tarqalgan, sinantrop tur	++

*Izoh: +- kam sonda, ++-o'rta sonda, +++ko'p sonda

A.S. Saidov (2012) ma'lumotlariga ko'ra, Tojikistonda keyingi 50 yilda tekislik va yarim cho'l zonalari jadal antropogen omillar ta'siriga uchragan va bu yerlar hayvonlarning, jumladan kemiruvchilarning tarqalishi va sonini o'zgarishi qonuniyatlarini o'rganish uchun etalon bo'lib xizmat qiladi [2].

XULOSA

O'zbekistondagi tekislik zonalari ham qadimdan dehqonchilik va chorvachilik qilishga ixtioslashgan xo'jaliklar qaramog'ida turli darajada transformatsiyaga uchragan. Ayniqsa, keyingi yillarda bu yerlarda yer uchi va yer osti boyliklarini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyatning jadallashuvi mazkur o'zgarishlarning yanada kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Kemiruvchilarning asosiy yashash muhitlari bo'lgan mazkur hududlarda tabiiy sharoitning keskin o'zgarishi turlarning biotopik tarqalishi, ularning soni va dinamikasi hamda ekologiyasidagi boshqa xususiyatlarning u yoki bu darajada siljishiga sabab bo'lmoqda. O'tgan asrning ikkinchi yarmida respublikamizning cho'l zonasidagi tabiiy landshaftlarning sug'orma dehqonchilik qilinadigan maydonlarga aylantirilishi, turli hajm va uzunlikdagi keng maydonni egallagan irrigatsiya



tizimlarining barpo etilishi bu yerda uchrovchi ayrim turlarning yashashi uchun bir qator qulayliklar yaratgan bo'lsa, ayrim kserofil turlarning areallarini o'zgarishiga yoki o'zlari uchun anomal shart-sharoitlarda yashashga moslanishiga yoki bu yerlardan chiqib ketishiga sabab bo'lmoqda. Regiondagi suksessiyalarga sabab bo'lgan mazkur o'zgarishlar oqibatida ayrim turlar soni keskin ko'payib ularning biozararalanishlardagi ishtiroki ham oshdi. Yangi o'zlashtirilgan joylarda aholi yashash punktlarining barpo etilishi kemiruvchilar bilan va odamlar orasidagi munosabatlarning yanada yaqinlashuga olib keldi. Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida uchrovchi kemiruvchilarni turli biotoplar bo'yicha tarqalish xususiyatlariga ko'ra shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Namlik yuqori bo'lmagan tabiiy va modifikatsiyalangan landshaftlarda tarqalgan kemiruvchilar. Bunday landshaftlarga tabiiy cho'l zonasi, qabristonlar, dehqonchilik qilinmaydigan tashlandiq yerlar va shu kabilar misol bo'ladi. Bunday landshaftlarda sariq yumronqoziq- *Spermophilus fulvus*, katta qo'shoyoq-*Allactaga major*, kichik qo'shoyoq - *Allactaga elater*, katta qumsichqon - *Rhombomys opimus* keng tarqalgan.

2. Namlik nisbatan yuqori bo'lgan madaniylashgan landshaftlarda tarqalgan kemiruvchilar - bunday landshaftlarga agrotsenoziq atrofidagi maydonlarni, irrigatsiya tizimlari va ularning qirg'oqlarini misol qilish mumkin. Bunday landshaftlarda ondatra - *Ondatra zibethicus*, buxoro dala sichqoni- *Blanfordimys bucharensis*, jamoatchi dala sichqon - *Microtus socialis* kabi turlar keng tarqalgan.

3. Bevosita aholi yashash joylarida tarqalgan kemiruvchilar - bu guruhga urbanizatsiyalashgan hududlarda keng tarqalgan sinantropozatsiyalashgan va sinantropizatsiyalanish arafasida turgan turlarni kiritish mumkin. Bularga uy sichqoni - *Mus musculus*, kulrang kalamush-*Rattus norvegicus*, turkiston kalamushi- *Rattus turkestanicus* ni misol qilish mumkin.

REFERENCES

1. Laxanov J.L. "Umurtqasizlar zoologiya".-Toshkent.: 2005. 249 b.
2. Саидов А.С. Распространение, систематика, экология и практические значение грызунов Таджикистана. Автореф. дисс. на соис. канд. биол. наук. Душанбе, 2012. 46 с.
3. Dadayev S., Saparov Q. "Zoologiya" (Xordalilar 2-qism).-Toshkent.: 2011.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent.: 2000-2005.
5. Nasiba Ibragimovna Shonazarova, & Voxid Baxromovich Fayziev (2021). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA

BOTANIKA FANINI O'QITISH UCHUN ELEKTRON RESUSLARNI QO'LLASH. Academic research in educational sciences, 2 (4), 1487-1494. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00762.

6. Nasiba Ibragimovna Shonazarova, & Voxid Baxramovich Fayziyev (2021). KARTOSHKKA VIRUSLARI VA ULARGA QARSHI SAMARALI KURASH CHORALARI. Academic research in educational sciences, 2 (9), 955-965.

7. Nasiba Ibragimovna Shonazarova, & Voxid Baxramovich Fayziyev (2021). KYV SHTAMMLARI VA ULARNING AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, 2 (10), 306-311.

8. Алланазарова, И., & Закиров, Д. (2021). ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ 3D-ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРОВЕДЕНИИ ЗАНЯТИЙ КУРСА:«АНАТОМИЯ ЧЕЛОВЕКА» В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 404-411.

9. Сатторов М., Шевелева А.А., Файзиев В. и Чирков С. (2020). Первое сообщение о вирусе оспы сливы на сливе в Узбекистане. *Болезнь растений (ja)*.

10. Шарипбоева Ю., Нематов Х. и Иброксимов М. (2022). АНАЛИЗ ПОСАДОК ПОЧВЕННЫХ НЕМАТОДОВ, ВЫСЕВАЕМЫХ MELILOTUS OFFICINALIS DESCR. *Академические исследования в современной науке*, 1 (9), 299-302.

11. Rakhimov, A. K., Jononova, R. N., & Egamberdieva, L. N. (2020). Methodological support using innovative teaching for the development of natural and scientific outlook of students methodological support using innovative teaching for the development of natural and scientific outlook of students. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(7), 8136-8142.

12. Абдумовлон Абдувалиевич Темиров, & Мафтуна Олим Кизи Облобердиева (2022). ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ И СИСТЕМАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОЧВЕННЫХ ВОДОРΟΣЛЕЙ ГОРОДА ЧИРЧИК. Academic research in educational sciences, 3 (5), 339-347.

13. Мухаммаджон, М., Ситора, Т., Ленара, С.А., Мафтуна, М., Нигора, М., и Талат, С. (2021). ВЛИЯНИЕ NGF НА ПОКАЗАТЕЛИ АНТИОКСИДАНТНОЙ СИСТЕМЫ В ТКАНЯХ МОЗГА КРЫС. *Универсум: химия и биология*, (9 (87)), 82-86.